


### XIII. DEMOGRAFIK HOLAT

Andijon viloyati 1941- yilda tashkil topgan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy-hududiy birligi hisoblanadi.

Andijon viloyati O‘zbekiston Respublikasining sharqiy qismida joylashgan bo‘lib, maydoni 4,3 ming kv. km. Chegara uzunligi 617,1 km. Andijon viloyati Farg‘ona viloyati bilan (101,2 km), Namangan viloyati bilan (106,6 km), Qirg‘iziston Respublikasi bilan (409,3 km) chegaradosh.

Viloyat ma’muriy-hududiy jihatdan 2 ta viloyat bo‘ysunuvidagi shahar va 14 ta tumanga bo‘lingan, aholi zichligi 1 kv. km ga 748 kishiga to‘g‘ri keladi.

Ma’muriy markazi – Andijon shahri bo‘lib, aholisi 456,4 ming kishi.



Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2021- yil 1- oktabr holatiga viloyatda doimiy aholi soni 3 237,3 ming kishini tashkil etib, yil boshidan 49,2 ming kishiga yoki 1,5 % ga o‘sdi.

Shu bilan birga, shahar aholisi soni 1 691,1 ming kishini (jami aholi soniga nisbatan 52,2 %), qishloq aholisi soni 1 546,1 ming kishini (47,8 %) tashkil etadi.

#### Andijon viloyatining ma’muriy-hududiy bo‘linishi



## ANDIJON VILOYATINING DEMOGRAFIK HOLATI



2021- yil yanvar- sentabr, dastlabki ma'lumotlar



**Doimiy aholi soni**

**3 237 266 kishi**



**Tug'ilganlar soni**

**63 534 kishi**



**O'lganlar soni**

**11 967 kishi**



**Nikohlar soni**

**17 341 birlik**



**Nikohdan ajralishlar soni**

**2 911 birlik**



**Ko'chib kelganlar soni**

**5 277 kishi**

*shundan, xorijdan*

**10 kishi**



**Ko'chib ketganlar soni**


**7 682 kishi**

*shundan, xorijga*

**304 kishi**

**Shahar va qishloq aholisining jami aholiga nisbatan ulishi, % da**


**Erkak va ayollarning jami aholiga nisbatan ulishi, % da**



**Andijon viloyatining shahar va tumanlari bo'yicha doimiy aholi soni  
to'g'risida ma'lumot**  
(2021- yil 1- oktabr holatiga)

	Doimiy aholi soni, kishi				
	Jami	shu jumladan:		shu jumladan:	
		shahar	qishloq	erkaklar	ayollar
<b>Viloyat bo'yicha:</b>	<b>3 237 266</b>	<b>1 691 129</b>	<b>1 546 137</b>	<b>1 639 410</b>	<b>1 597 856</b>
shaharlar:					
Andijon	456 447	456 447	-	229 875	226 572
Xonobod	43 724	36 843	6 881	21 852	21 872
tumanlar:					
Oltinko'l	183 810	96 749	87 061	92 913	90 897
Andijon	272 096	208 490	63 606	135 986	136 110
Baliqchi	206 150	69 659	136 491	105 075	101 075
Bo'ston	74 353	26 221	48 132	37 564	36 789
Buloqboshi	146 465	70 828	75 637	74 550	71 915
Jalaquduq	190 494	79 744	110 750	97 064	93 430
Izboskan	244 518	78 399	166 119	124 349	120 169
Ulug'nor	61 414	6 332	55 082	30 656	30 758
Qo'rg'ontepqa	221 244	94 356	126 888	111 567	109 677
Asaka	338 083	104 015	234 068	170 958	167 125
Marhamat	177 755	140 245	37 510	90 650	87 105
Shahrixon	308 572	102 158	206 414	157 524	151 048
Paxtaobod	198 731	72 658	12 6073	100 856	97 875
Xo'jaobod	113 410	47 985	65 425	57 971	55 439

**Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi**  
(2021- yil 1- oktabr holatiga, ming kishi dastlabki ma'lumot)



## Shahar va tumanlar kesimida doimiy aholi soni va o'sish sur'ati

	<i>2020- yil 1- okrabr holatiga, kishi</i>	<i>2021- yil 1- okrabr holatiga, kishi</i>	<i>O'tgan yining mos davrilga nisbatan o'sish sur'ati, % da</i>
<b>Viloyat bo'yicha:</b>	<b>3 172 350</b>	<b>3 237 266</b>	<b>102,0</b>
<i>shaharlar:</i>			
Andijon	447 807	456 447	101,9
Xonobod	42 975	43 724	101,7
<i>tumanlar:</i>			
Oltinko'l	179 567	183 810	102,4
Andijon	265 884	272 096	102,3
Baliqchi	202 092	206 150	102,0
Bo'ston	72 723	74 353	102,2
Buloqboshi	143 723	146 465	101,9
Jalaquduq	187 126	190 494	101,8
Izboskan	239 963	244 518	101,9
Ulug'nor	60 183	61 414	102,0
Qo'rg'ontepqa	217 497	221 244	101,7
Asaka	330 928	338 083	102,2
Marhamat	174 291	177 755	102,0
Shahrixon	302 032	308 572	102,2
Paxtaobod	194 459	198 731	102,2
Xo'jaobod	111 100	113 410	102,1


## **Viloyat bo'yicha aholining tabiiy harakati** (yanvar-sentabr holatiga)

	<i>kishi</i>			<i>1000 aholiga nisbatan</i>	
	<i>2020- yil</i>	<i>2021- yil</i>	<i>o'sish, kamayish, +,-</i>	<i>2020- yil</i>	<i>2021- yil</i>
Tug'ilganlar	59 626	63 534	3 908	25,3	26,4
O'lganlar	10 867	11 967	1 100	4,6	5,0
Nikohlar	16 999	17 341	342	7,2	7,2
Ajralishlar	2 271	2 911	640	1,0	1,2
Ko'chib kelganlar	3 768	5 277	1 509	1,6	2,2
Ko'chib ketganlar	7 042	7 682	640	3,0	3,2

**Tug‘ilish.** 2021- yilning yanvar–sentabr oylarida tug‘ilganlar soni 63 534 kishini tashkil qildi va 2020- yilning shu davriga (59 626 kishi) nisbatan 3 908 taga ko‘paydi, shunga mos ravishda tug‘ilish koeffitsiyenti 26,4 promilleni tashkil qildi va avvalgi yilga nisbatan 1,1 promillega ortdi.



### **Viloyat bo‘yicha tirik tug‘ilganlar soni hamda koeffitsienti** *2021- yil yanvar – sentabr davri uchun (1000 aholiga nisbatan, promille)*





**Tug‘ilganlar sonining jinsi va tug‘ilgan joyi bo‘yicha taqsimlanishi**  
*(2021- yil yanvar-sentabr holatiga, kishi)*

	Jami	jinsi bo‘yicha		joyi bo‘yicha	
		<i>o‘g‘il bolalar</i>	<i>qiz bolalar</i>	<i>shahar</i>	<i>qishloq</i>
<b>Viloyat bo‘yicha:</b>	<b>63 534</b>	<b>32 840</b>	<b>30 694</b>	<b>33 401</b>	<b>30 133</b>
<i>shaharlar:</i>					
Andijon sh.	9 241	4 812	4 429	9 241	-
Xonobod sh.	678	357	321	678	-
<i>tumanlar:</i>					
Oltinko‘l	3 881	1 977	1 904	2 083	1 798
Andijon	5 646	2 932	2 714	4 523	1 123
Baliqchi	3 958	2 010	1 948	1 059	2 899
Bo‘ston	1 511	776	735	665	846
Buloqboshi	2 543	1 324	1 219	956	1 587
Jalaquduq	3 378	1 769	1 609	1 490	1 888
Izboskan	4 681	2 428	2 253	1 363	3 318
Ulug‘nor	1 207	601	606	175	1 032
Qo‘rg‘ontepa	3 879	1 987	1 892	1 610	2 269
Asaka	7 047	3 637	3 410	2 693	4 354
Marhamat	3 452	1 820	1 632	2 481	971
Shahrixon	6 322	3 311	3 011	1 967	4 355
Paxtaobod	3 967	1 986	1 981	1 418	2 549
Xo‘jaobod	2 143	1 113	1 030	999	1 144

2021- yil yanvar – sentabr davrida tirik tug‘ilganlar sonidan o‘g‘il bolalar soni 32 840 nafarni yoki jamidan 51,7 foizni tashkil etdi. Mos ravishda qiz bolalar soni 30 694 nafar va jamidan 48,3 foizni tashkil etdi. Shahar joyda tug‘ilganlar soni 33 401 nafarni (jamidan 52,6 %) tashkil etdi, qishloq joylarda tug‘ilganlar soni esa 30 133 nafarni (jamidan 47,4 %) tashkil etdi.

## Tug‘ilgan bolalarning onasining yoshi bo‘yicha taqsimlanishi

Ona yoshi bo‘yicha	Tug‘ilgan bolalar soni	shundan	
		o‘g‘il bolalar	qiz bolalar
<b>Jami</b>	<b>63 534</b>	<b>32 840</b>	<b>30 694</b>
<i>shu jumladan:</i>			
0-17 yosh	78	42	36
18 yosh	585	282	303
19-20 yosh	6 725	3 453	3 272
21-25 yosh	24 538	12 685	11 853
26-30 yosh	19 261	10 001	9 260
31-40 yosh	12 136	6 267	5 869
41yosh va undan yuqori	211	110	101

Onaning yoshi bo‘yicha eng ko‘p tug‘ilish holati onaning 21-25 yosh (24 538 ta, jamidan 38,6 foiz) va 26-30 yosh (19 261 ta, 30,3 foiz) davriga to‘g‘ri kelmoqda.

**Vafot etganlar.** 2021- yil yanvar – sentabr oylarida 12,0 mingta o‘lim qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga nisbatan o‘lim koeffitsiyenti 5,0 promilleni tashkil etdi.

### O‘limning sabablari bo‘yicha taqsimlanishi


*(yanvar – sentabr)*



2021- yilning yanvar–sentabr oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 66,8 foizi qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 7,7 foizi o’smalardan, 4,6 foizi baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 4,0 foizi ovqat hazm qilish a’zolari kasalliklaridan, 4,1 foizi nafas olish a’zolari kasalliklaridan, 1,5 foizi yuqumli va parazitar kasalliklardan hamda 11,3 foizi boshqa kasalliklardan vafot etgan.

2021- yilning yanvar – sentabr oylarida 755 ta 1 yoshgacha go‘dakiar o‘lim qayd etilgan bo‘lib, har 1000 tirik tug‘ilganga go‘dakiar o‘lim koeffitsiyenti 12,1 promilleni tashkil etdi.

### **Asosiy o‘lim sabablari bo‘yicha 1 yoshgacha vafot etganlar**




**Nikohlar va ajralishlar.** 2021- yilning yanvar–sentabr oylarida fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlarida nikohlar va nikohdan ajralishlar qayd etildi. Jami tuzilgan nikohlar soni 17 341 ta (o‘tgan yilning mos davrida 16 999 ta), ajrimlar soni 2 911 ta (o‘tgan yilda 2 271 ta)ga teng bo‘ldi. Qayd etilgan nikoh ko‘rsatkichi 1000 aholiga nisbatan 7,2 promilleni (2020- yilning tegishli davrida 7,2 promille) va ajrim ko‘rsatkichi 1,2 promilleni (2020- yilning tegishli davrida 1,0 promille) tashkil etdi.

**Tuzilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar soni**  
(yanvar-sentabr oylarida)

(birlik)

	<i>Tuzilgan nikohlar</i>		<i>Nikohdan ajralishlar</i>	
	<i>2020- yil</i>	<i>2021- yil</i>	<i>2020- yil</i>	<i>2021- yil</i>
<b>Viloyat bo‘yicha:</b>	<b>16 999</b>	<b>17 341</b>	<b>2 271</b>	<b>2 911</b>
<i>shaharlar:</i>				
Andijon	2 507	2 914	369	586
Xonobod	182	224	43	49
<i>tumanlar:</i>				
Oltinko‘l	1 059	1 017	100	146
Andijon	1 533	1 604	224	253
Baliqchi	1 026	1 158	94	161
Bo‘ston	356	365	50	55
Buloqboshi	674	718	111	127
Jalaquduq	934	1 034	140	160
Izboskan	1 382	1 242	161	244
Ulug‘nor	269	269	31	57
Qo‘rg‘ontepa	1 079	1 095	144	176
Asaka	1 791	1 630	272	285
Marhamat	962	969	133	135
Shahrixon	1 611	1 480	182	225
Paxtaobod	1 034	974	127	142
Xo‘jaobod	600	648	90	110


**Viloyat bo‘yicha tuzilgan nikohlar soni va nikohlar koeffitsienti**  
*2020- yil yanvar-sentabr holatiga (har 1000 aholiga nisbatan promille)*



Nikoh tuzish koeffitsiyentining avvalgi yilga nisbatan eng ko‘p o‘sishi Baliqchi tumanida (0,7 promillega), Andijon shahri (1,1 promillega) kuzatildi.


Nikoh koeffitsiyentining eng ko‘p pasayishi Paxtaobod tumani (0,6 promillega), Asaka tumani (0,8 promillega), Shahrixon tumanida (0,8 promillega) kuzatildi.

**Viloyat bo‘yicha tuzilgan nikohlarning nikohlanuvchilarining yoshi va jinsi bo‘yicha taqsimlanishi**  
*2021- yil yanvar – sentabr holatiga*



Nikoh tuzish davrida erkaklarning katta ulushi asosan 21-30 yosh chegarasida (14 409 ta, jamiga nisbatan 83,1 foiz), ayollar esa 18-25 yosh oralig‘ida (14 596 ta, jamiga nisbatan 84,2 foiz) ekanlini ko‘rish mumkin.Ushbu davrda erkaklarning nikohga kirish o‘rtacha yoshi 27,2 yoshni, ayollarnikiesa 22,1 yoshni tashkil etdi.

**Hududlar bo‘yicha nikohdan ajralishlar soni**  
*(2021- yilning yanvar – sentabr oylarida, birlik)*






Ajrim koeffitsiyentida aksariyat tumanlarda avvalgi yilga nisbatan o'sish kuzatildi. Avvalgi yilga nisbatan eng ko'p o'sish Ulug'nor tumani (0,5 promillega), Andijon shahri (0,6 promillega) ro'y berdi. Eng ko'p kamayish tumanlarda kuzatilmadi.

### Ajrim bo'lgan oilalardagi 18 yoshgacha bo'lgan bolalari soni, kishi (2021- yilning yanvar – sentabr oylarida)

	<i>Jami ajrimlar soni, birlik</i>	<i>shundan:</i> <i>oilalardagi 18 yoshgacha b o'lgan bolalar</i>
<b>Viloyat bo'yicha:</b>	<b>2 911</b>	<b>1 386</b>
<i>shaharlar:</i>		
Andijon	586	115
Xonobod	49	31
<i>tumanlar:</i>		
Oltinko'l	146	52
Andijon	253	116
Baliqchi	161	55
Bo'ston	55	28
Buloqboshi	127	103
Jalaquduq	160	91
Izboskan	244	148
Ulug'nor	57	28
Qo'rg'ontep'a	176	90
Asaka	285	134
Marhamat	135	88
Shahrixon	225	142
Paxtaobod	142	90
Xo'jaobod	110	75

**Viloyat bo‘yicha nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti**  
 (2021- yil yanvar – sentabr davri, 1000 aholiga nisbatan, promille)



**Migratsiya.** Dastlabki ma'lumotlarga ko‘ra, 2021- yil yanvar– sentabr oylarida viloyat bo‘yicha ko‘chib kelganlar soni 5 277 kishini, shu davr mobaynida ko‘chib ketganlar soni esa 7 682 kishini tashkil qildi. Mos ravishda migratsiya qoldig‘i minus 2 405 kishini tashkil etgan, 2020- yilning mos davrida minus 3 274 kishi bo‘lgan.

**Aholining migratsiya ko‘rsatkichlari**  
 (yanvar – sentabr)

(kishi)

	Kelganlar		Ketganlar		Migratsiya saldosи	
	2020- yil	2021- yil	2020- yil	2021- yil	2020- yil	2021- yil
<b>Viloyat bo‘yicha</b>	<b>3 768</b>	<b>5 277</b>	<b>7 042</b>	<b>7 682</b>	<b>-3 274</b>	<b>-2 405</b>
<i>shaharlar:</i>						
Andijon	994	1 215	1 593	2 081	-599	-866
Xonobod	126	171	111	132	15	39
<i>tumanlar:</i>						
Oltinko'1	377	502	334	412	43	90
Andijon	621	1 148	773	719	-152	429
Baliqchi	278	229	569	460	-291	-231
Bo'ston	98	157	137	145	-39	12
Buloqboshi	126	198	230	284	-104	-86
Jalaquduq	59	274	424	432	-365	-158
Izboskan	253	40	403	520	-150	-480
Ulug'nor	110	95	137	167	-27	-72
Qo'rg'ontep	121	299	450	543	-329	-244
Asaka	246	55	331	396	-85	-341
Marhamat	35	149	381	312	-346	-163
Shahrixon	98	130	561	458	-463	-328
Paxtaobod	78	247	350	314	-272	-67
Xo'jaobod	148	368	258	307	-110	61

## Migratsiya yo‘nalishlari bo‘yicha aholi harakati

Nº	Migratsiya turi	Ko‘chib kelganlar	Ko‘chib ketganlar
	<b>JAMI</b>	<b>5 277</b>	<b>7 682</b>
<b>1</b>	<b>Ichki migratsiya</b>	<b>5 267</b>	<b>7 378</b>
<b>1.1</b>	Viloyatlararo	932	2 966
<b>1.2</b>	Tumanlararo	4 335	4 412
<b>2</b>	<b>Tashqi migratsiya</b>	<b>10</b>	<b>304</b>
<b>2.1</b>	Rossiya Federatsiyasi	3	84
<b>2.2</b>	Ukraina		11
<b>2.3</b>	Qozog ‘iston Respublikasi	-	47
<b>2.4</b>	Qirg ‘iz Respublikasi	5	134
<b>2.5</b>	Tojikiston Respublikasi	2	9
<b>2.6</b>	Turkmaniston Respublikasi	-	3
<b>2.7</b>	Avstriya	-	2
<b>2.8</b>	Xitoy Xalq Respublikasi	-	7
<b>2.9</b>	Koreya respublikasi	-	2
<b>2.10</b>	Lyuksemburg	-	1
<b>2.11</b>	Shveytsariya	-	3
<b>2.12</b>	Boshqa davlatlar	-	1

Joriy yilning yanvar-sentabr davrida ko‘chib kelganlarning aksariyati tumanlararo (4 335 kishi, jamiga nisbatan 82,1 foiz) harakatlandi, ko‘chib ketganlar ichida boshqa viloyatlarga ko‘chib o‘tganlar ulushi (4 412 kishi, jamiga nisbatan 57,4 foiz) salmoqli bo‘ldi.

Shuningdek agar xorijdan viloyatimizga 10 kishi ko‘chib kelgan bo‘lsa, 304 kishi chet davlatlarga ko‘chib ketdi.